

TA'LIM JARAYONLARIDA O'QUVCHILARDA KOMUNIKATIV KOMPITENTLIKNI TAKOMILLASHTRISH

O.F. Hamrayeva

FDU O'qituvchisi

Nozimbek Boltaboyev

Geografiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kommunikativ kompetentlik va uning tarixiga qisqacha to'xtalib o'tilgan. Asosiy qismda kommunikativ kompetentlik Oliy ta'lim talabalari oldiga qo'yadigan vazifalari, ta'limda kompetentli yondashuvning asosiy qisimi ekanligi qisqacha yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *kommunikativ, kompetent, nazariya, yondashuv, pedagog, shaxs tavsifi, jamiyat, ta'lim muassasalari, qobiliyat, metodologiya.*

N.Xomskiy til nazariyasi tizimida birinchi bo'lib, 1965-yilda o'zining "Sintaksis nazariyasining jihatlari" asarida "kompetentlik" tushunchasidan foydalangan. Olimning fikricha, lingvistik kompetensiya "so'zlovchining – tinglovchining o'z tilini bilishi"dan boshqa narsa emas va bu bilimlar tilning kundalik hayotda haqiqiy qo'llanilishiga qarama-qarshi qo'yiladi. Ta'lim sohasidagi kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirish va rivojlantirish sharoitida ta'lim sohasidagi tizimli o'zgarishlar "kompetentlik" tushunchasining mazmuni doimiy ravishda o'zgarishiga ta'sir qiladi va bu turli olimlar hamda mualliflar tomonidan o'ziga xos tarzda talqin qilingan. S.I. Ojegovaning va N.YU. Shvedovaning izohli lug'atida "kompetent" tushunchasiga nisbatan quyidagi ta'rif ilgari surilgan: bilimdon, qaysidir sohada obro'li, o'z sohasining etuk mutaxassisi, "kompetentlik" tushunchasi esa "har bir inson yaxshi biladigan masalalar doirasi". S.E. SHishov va V.A. Kalney kompetensiya "ta'lim orqali olingan bilim, tajriba, moyillik, qadriyatlarga asoslangan umumiy qobiliyat" deb hisoblaydi.

Talim jarayonida talabalarini kommunikativ kompetentligini shakllantirish pedagoglarni tayyorlashdagi murakkab muammolar qatorida o'ziga xos o'rin tutadi. Ayniqsa ta'limni modernizatsiyalash bilan bog'liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarni amaliy, psixologik, metodik,

tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish bilan boyib bormoqda.

“Kompetentlik” va “kompetensiya” ta’limda kompetentli yondoshuvning asosiy tushunchalaridir. Manbalar tahlili esa, ularning ilmiy adabiyotlarda bir qiymatli ta’rifga ega bo’lmagan murakkab, ko’pkomponentli va fanlararo tushunchalar ekanligini ko’rsatadi. Tadqiqotchilar fikricha ular hajmi, turkumi, semantikasi va mantiqiy tuzilmasi bo’yicha farqlanib, kompetentli shaxs tavsifi (xususiyatlari, odatlari va boshqalar) sifatida qaralishi mumkin. Kompetentli shaxs tavsifi (xususiyat, shaxs sifati, uning komponenti), shaxs tuzilmasida yaxlit ta’lim, shaxs xususiyatlari tizimi, bilim, ko’nikma va malakalarni egallash natijasida yuzaga keluvchi holatlar (tayyorgarlik, yo’naltirilganlik va boshqalar) sifatida ifodalanishi mumkin, ko’pincha esa, kompetentli bilim va tajriba bilan tenglashtiriladi.


Oliy ta’lim muassasasi bitiruvchisining quyidagi asosiy kompetensiyalari ajratiladi: o’quv-bilish, axborotli, kommunikativ, ijtimoiy-foydali, shaxsiy o’z-o’zini takomillashtirish. Bularning barchasi bitiruvchiga kasbiy bilim, ko’nikma va keying hayotda faoliyat usullari majmuasini ongli ravishda qo’llash imkonini beradi. Kompetentlik - insonning faoliyatli tavsifi, shuning uchun uning tasniflanishi

eng avvalo, faoliyat tasnifiga mos bo’lishi kerak. Umumiy holda bular mehnat, o’quv, o’yin va kommunikativ kompetentliklar. Bularga yana quyidagilarni qo’shimcha qilish mumkin:

- kompetentlikni faoliyatning yo’naltirilgan ob’yekti bo’yicha tasniflash, u «inson-inson», «inson-texnika», «inson-badiiy obraz», «inson-tabiat», «inson-belgili tizim» sohalarida kompetentlikni beradi;
- kasblarning alohida sinflari va guruhlarini sohasidagi kasbiy kompetentlik;
- aniq faoliyat (mutaxassislik) dagi predmetli kompetentlik.

Jamiyatning turli sohalarida esa quyidagi maxsus kompetentliklar ham talab etiladi: maishiy xizmat sohasida, san’at sohasida, sport sohasida va boshqalar.

Shaxsning kommunikativ kompetensiyasini belgilovchi asosiy komponentlar quyidagilardir: shaxsni kasbiy muloqotga yo’naltirish (motivatsion komponent) aloqa me’yorlari va qoidalarini bilish (kognitiv komponent), ko’nikmalar va kommunikativ ko’nikmalarga ega bo’lish (operativ faoliyat komponenti), aks ettirish (baholash komponenti) uning rivojlanishining eng muhim shartlari: dialogik muloqotni tashkil etish, o’zini o’zi bilish va o’zini o’zi yetarli darajada



hurmat qilish. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish shaxsning umumiy va kasbiy rivojlanishi, uni tashkil etuvchi bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirish bilan bog‘liq. Ta‘lim muassasasi sharoitida ta‘lim menejerlarining kommunikativ

kompetensiyasini rivojlantirishning texnologik asoslari bo‘yicha tizimlashtirilgan material quyidagilarga imkon berishi bilan belgilanadi:

- mazkur hodisaning nazariyasi va metodologiyasida o‘rganishning sifat darajasini oshirish;

- ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarni tashkil etish;

- ta‘lim muassasasi mutaxassislari e‘tiborini kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida kasbiy muloqotni takomillashtirish jarayonlarini yanada o‘rganish, ijtimoiy-madaniy faoliyatning texnologik kompleksini mazmun-uslubiy ta‘minotining tarkibiy qismlaridan biri sifatida qo‘llash zarurligiga qaratish;


- kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni.

Kasbiy muloqotga bo‘lgan ehtiyojni belgilaydigan motivatsiyalarni shakllantirish, kasbiy faoliyatda kommunikativ jarayonni tashkil etish qonuniyatlarini bilish, kommunikativ jarayonni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, professional muloqotda nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish, kommunikativ xatti-harakatlarning aks etishi ta‘lim menejerlari faoliyatining sifatini ta‘minlaydi.

XULOSA: Pedagogning kommunikativ pozitsiyasi uning muloqotning belgilangan maqsadlariga erishish yo‘llari hamda suhbatdoshi shaxsiga nisbatan bo‘lgan munosabati, shuningdek, o‘zaro ta‘sirning aniq muloqot uslubi jarayonida amalga oshishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos talablarini aks ettirishi mumkin. Natijada kommunikativ kompetentlilik pedagogning muhim ahamiyatli kasbiy-yo‘naltirilgan tavsiflaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi, ushbu kompetentlilikning rivojlanishi esa oliy professional ta‘limda birinchi galdagi vazifa hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichlari, ta‘limdagi yangi paradigmalar - bularning barchasi kommunikativ kompetensiyani shakllantirish muammosini yangi mazmun bilan to‘ldiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamrayeva, O. F. Q. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHLTLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 537-544.
2. Hamroyeva, O. F. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KASBIY-KOMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 985-991.
3. Abdixakimovich, X. K. (2023). PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO 'LAJAK OFITSERLARDA FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 2(Special Issue 12), 538-541.
4. Ergasheva, N. M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARLARINING KOGNITIV KOMPETENTLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 697-702.
5. Polvonov, K. M. (2020). Technological calculations for calcium chlorate defoliant. *Экономика и социум*, (12-1), 224-230.
6. Жумабоев, А. Г., Базаров, А. А., & Полвонов, Х. М. (2020). Каталитик риформинг қурилмаларидан агфу-этан блоки қурилмасига “қуруқ газ” узатишда газ таркибидаги суюқ углеводородларни ажратиб олиш схемасини тадбиқ этиш. *Science and Education*, 1(3), 212-216.
7. Xayrullo o'g'li, M. A., & Madaminovich, P. X. (2023). TUZLI TIZIMLARDA ERUVCHANLIK. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 1(10), 183-187.
8. Madaminovich, P. K. (2023). TECHNOLOGICAL CALCULATIONS FOR THE PRODUCTION OF LIQUID CHLORINE CALCIUM DEFOLIANT. *Journal of Modern Educational Achievements*, 5(5), 363-373.
9. Melibaevnaa, B. K., & Toshtemirovna, M. K. (2023). PNEUMONIA IN NEWBORN BABIES ON VENTILATORS. *World Bulletin of Social Sciences*, 19, 16-17.
10. Mahmudova, H. T. (2022). FEATURES OF PROVIDING HIGHLY SPECIALIZED MEDICAL CARE TO PREGNANT WOMEN WITH COVID-19 IN OBSTETRIC PRACTICE. *Scientific Impulse*, 1(5), 1329-1332.



11. Isaqov, X., Mamatqulova, S., & Obidova, B. (2022). CHEMICAL COMPOSITION AND MEDICINAL PROPERTIES IN THE PAPAYA (*CARICA PAPAYA L.*) PLANT. *Science and Innovation*, 1(8), 867-872.

12. Isaqov, X., Mamatqulova, S., & Obidova, B. (2022). MACRO AND MICROELEMENT COMPOSITION AND MEDICINAL PROPERTIES IN THE GUAVA (*PSIDIUM GUAJAVA L.*) PLANT. *Science and Innovation*, 1(8), 873-877.